

**VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINING  
G'OYAVIY ASOSLARI**

Umarov Sherzod Umirovich,  
Shimoli-G'arbiy harbiy okrug  
kadrlar bo'limi boshlig'i

**ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ  
КОНЦЕПЦИИ ПАТРИОТИЗМА**

Умаров Шерзод Умирович, Северо-Западный военный  
округ, начальник отдела кадров

**IDEOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE  
CONCEPT OF PATRIOTISM**

Umarov Sherzod Umirovich, North-Western Military District,  
head of personnel department



+998900294008

sh900294008@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0003-4653-4556>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Vatanparvarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, bugungi globallashuv jarayonlarida milliy mustaqilikni mustahkamlash, mamlakat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati masalalari ilmiy-nazariy tahlil qilingan hamda amaliy taklif-tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** vatanparlik, jasorat, qahramonlik, faollik, mas'uliyat, majburiyat, daxldorlik, fidoyilik.

**Аннотация:** В данной статье научно и теоретически анализируются понятие патриотизма и его сущность, укрепление национальной независимости в современных глобализационных процессах, вопросы его значения в обеспечении безопасности страны, а также даются практические предложения.

**Ключевые слова:** патриотизм, мужество, героизм, активность, ответственность, целеустремленность, вовлеченность, самоотверженность.

**Abstract:** In this article, the concept of patriotism and its essence, strengthening of national independence in today's globalization processes, issues of its importance in ensuring the country's security are scientifically and theoretically analyzed, and practical suggestions are given.

**Keywords:** patriotism, courage, heroism, activity, responsibility, commitment, involvement, dedication.

**Kirish.** Insoniyat sivilizatsiyasi yutuqlarining eng muhim jihatlaridan biri tug'ilib o'sgan joyini qadrlash, qo'riqlash va himoya qilishdir. Insondagi bu fazilat keng qamrovli bo'lib, Vatanparvarlik tushunchasi bilan ifodalanadi. Vatanparvarlik inson hayotining, mavjudligining mohiyatini ifodalovchi

“faoliyat”, “faollik”, “qahramonlik” va “jasorat” “altruizm” kabi kategoriyalarni mujassamlashtiradi. Shaxs bilan jamiyat, fuqaro bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar, umuman, ijtimoiy falsafaga oid barcha ijtimoiy munosabatlar ana shu tushunchalarda o'z inikosini topgani uchun ham

tadqiqotchilar ularga murojaat etolmay, o'z muammolarini negizini ular bilan bog'lamay o'tolmaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** “Faoliyat”, “faollik”, inson mavjudligining sharti va ifodasi ekani antik davr faylsasufklarigayoq ma'lum edi. “Faylsufklar otasi” Aristotel insonning ijtimoiy borliqdagi o'rni va mohiyatini uning “ijtimoiy mavjudot”ligida ko'rdi. Uning fikriga ko'ra, inson boshqa mavjudotlardan farqli ravishda fikrlash, fikrini ifodalash, ezgulik va yomonlikni sezish xislatiga ega, ya'ni yon atrofiga faol munosabatda bo'lish fazilatiga ega “ijtimoiy mavjudot” [ 2. C.377.]. Aristotelning bu fikri aslida ustoz Platon asarlaridan o'zlashtirilgan. Aynan Platon Suqrot dialoglarida inson nafaqat ma'naviy axloqiy sifatlarga, ezgulikka, go'zallik yaratishga, xuddi shuningdek, “eydos”, polis, vatan manfaatlariga xizmat qilishga qodir shaxs sifatida qaraladi. Suqrotning mulohazalari va hayot tarzi polisga, hozirgi talqinda davlat shaharga, vatanga xizmat qilish g'oyasi bilan sug'orilgan [ 2. C.379.]. Platonning “Politika” asari insonning siyosiy mavjudotligini tasdiqlaydigan fikrlarga to'la. Suqrotning o'zidan yosh askarlar davrasida bosqinchilarga qarshi jang qilgani vatanparvarlikning yorqin namunasi. “Faoliyat”, “faollik”, “amallar” shunchaki “o'zi o'zi uchun” mavjud tushunchalar emas, ular inson ongida shakllangan maqsadlar va xayollar orqali xatti-harakatlarda obyektivlashgan voqeliklardir. Ularning vatanparvarlik bilan bog'liqligini ana shu obyektivlashish ifodasi sifatida qarash zarur. Aristotel “ezgulik ezgulik bilan yo'g'rilgan faoliyatga xosdir” [ 2. C.66.], deganida ezgulik ezgu amallar orqali namoyon bo'ladi, faoliyat, har qanday tushuncha, maqsad, xayolning obyektivlashgan ko'rinishidir, degan fikrga olib keladi. Zamonaviy falsafiy ta'limotlar ham inson xarakterini belgilovchi maqsad va xayollarning mezoni amaliy faoliyat ekanini tasdiqlaydi [3. C. 48 52]. Shunday ekan, amaliy faoliyat vatanparvarlik va milliy g'urning obyektivlashgan in'ikosidir.

**Muhokama.** Faoliyat, faollikning vatanparvarlik bilan uyg'un kelishida, qaralishida o'ziga xos ijtimoiy falsafiy ma'no bor. Buni quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, faoliyat, faollik ongli mavjudotning mavjudlik, hayotiylik sharti va ifodasidir. Faqat ongli mavjudotda, ya'ni

insonda faoliyat, faollik anglangan hodisa tarzida namoyon bo'ladi. Faoliyatga, faollikka aylangan tuyg'ular ijtimoiy falsafiy mohiyatga ega. Ikkinchidan, faoliyat, faollik ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari hisoblanadi. Insonni faoliyat, faollik orqali tadqiq etish, uning xatti harakatlarini maqsadlilik, anglanganlik nuqtai nazaridan kuzatishi orqali ijtimoiy psixologik tadqiqotlar falsafaga yaqin turadi [1. C.13]. Psixologiya fanlari doktori, professor A.N.Leontev esa inson ongining rivojlanishi, o'ziga xos psixologik voqelik sifatida shakllanishi aynan faoliyat, faollik bilan bog'liqligini, inson yaratgan madaniy boyliklar ana shu jarayonlar ifodasi, mahsuli ekanini asoslagan.[ 7. C.418 ] Keyinchalik E.Fromm insonning ijtimoiy borliqdagi o'rini, “mavjudlik yoki nomavjudlik” muammosini “ijtimoiy va madaniy faoliyat” bilan bog'laydi [10. C.192-194]. Ha, faoliyat, faollikni insonning barcha xatti harakatlariga tadbiiq etish mumkin. Biroq unutmazlik zarurki, faoliyat, faollik vatanparvarlikda shunchaki tuyg'u bo'lib qololmaydi, u alohida fenomen darajasida namoyon bo'ladigan voqelikdir. Bu voqelikka fidoiylilik, altruizm, jasorat, mardlik kabi fazilatlar ham kiradi. Vatan inson tug'ilib o'sgan, etnomadaniy merosini o'zlashtirgan, tili va tafakkurini shakllantirgan, ajdodlar xoki va tajribasini e'zozlashga o'rgatgan ijtimoiy makondir. Bu makondagi moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash, ko'paytirish, kelgusi avlodlarga yetkazish har bir shaxsning muqaddas burchi hisoblanadi. Milliy madaniyat va o'zlikni anglash ana shu burchni idrok etish, bajarish orqali ro'y beradi. Yuqorida tilga olgan fidoiylilik va altruizm muqaddas burchning faoliyat, faollik, xatti harakatlardagi ifodasidir. I.Kant nazarda tutgan “axloqiy imperativ” qadriyatlarini qayta baholash mezoni sifatida keladi, bu imperativlar inson xatti harakatlariga, amallari va faoliyatiga “tadrijiylik va zaruriylik baxsh etadi, ularni ijtimoiy ehtiyojlarga monand” baholaydi, dolzarblashtiradi [5.C.314]. Agar I.Kantning ushbu “axloqiy imperativi”dan kelib chiqsak, inson amalga oshiradigan barcha xatti harakatlar axloqiy me'yorlar, normalar va qadriyatlar bilan o'lchanadi, “inson borlig'ini go'zallashtiruvchi har qanday narsa” o'z navbatida uni “axloqan go'zal” qiladi [5. C. 344]. Nima uchun inson fidoi bo'lishi kerak? Qaysi ma'naviy axloqiy motiv insonni fidoi bo'lishga undaydi? Ijtimoiy falsafada, etikada

insonning umri, tirikligi, hayoti eng ulug‘, ilohiy ne‘mat ekani ta‘kidlanadi. Hatto diniy dogmatik va ortodoks qarashlarga moyil F.Akvinskiy, A.Blajenni, Byome, Yassaviy, G‘azzoliy ham inson hayotining ilohiy ne‘mat ekanini rad etishmagan, yaratganni anglash va uning o‘yi bilan yashashda ilohiy fidoyilik ko‘rganlar. Shunday ekan fidoyilik inson hayotining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanmaydi, balki uning fenomenal ko‘rinishi, ya‘ni ma‘lum bir vaziyatlarda, ekstremal hollarda, dolzarblik xatti harakatlardagi ifodasi hisoblanadi. Har kun 24 soat fidoyi bo‘lib yashash mumkin emas, inson o‘zining tirik mavjudot ekanini anglashi uchun tinch, osuda va oilasi davrasida, “ma‘naviy ruhiy osoyishtalik qaror topgan muhitda” ham bo‘lishi kerak. Mutaxassislar buni “barqaror ma‘naviy ruhiy muhit” deyishadi [8.23-25]. Demak, fidoyilik alohida vaziyatlarda va alohida xatti-harakat sifatida keladigan, fenomenal xususiyatga ega voqelikdir.

**Natijalar.** Fidoyilik inson hayoti uchun fundamental ahamiyatga ega “bazaviy qadriyatlar” bilan bog‘liq. Bunday bazaviy qadriyatlarga hayotni asrash, ko‘payish, o‘z yaqinlarini xavf xatardan himoya qilish, o‘jiz va yordamga muhtoj yaqinlariga yordam ko‘rsatish, boqish, tashqi dushmanlar hujumlarini bartaraf etish, tabiiy ofatlardan qutqarish, uy-joy bilan ta‘minlash kabilar kiradi. Agar diqqat bilan qarajak, ushbu “bazaviy qadriyatlar” insonni butun ijtimoiy tarixiy taraqqiyot bosqichlarida fidoyi bo‘lishga, faollikka undab kelganini kuzatamiz. Masalan, hayotni asrash insonga tabiat tomonidan berilgan instinktdir. Bu instinkt davrlar o‘tishi va insonning ijtimoiy mavjudotga aylanib borishi bilan ma‘naviy ehtiyojga, ijtimoiy burchga aylangan. Tabiiy instinkt o‘rnini madaniy, ma‘naviy va ijtimoiy ehtiyoj egallagan, ushbu ehtiyoj, o‘z navbatida, insonni boshqa insonlar, jamiyat, sotsium bilan yashashga undagan. Ijtimoiy axloqiy normalar, ma‘naviy qadriyatlar taraqqiyot ehtiyojlari tarzida insoniyatga umumiylik, umumbashariylik baxsh etib keladi. Mana fidoyilik mohiyatan nimalar bilan bog‘liq.

Yoki bo‘lmasa, bazaviy qadriyat bo‘lgan yaqinlarni zarur narsalar (uy-joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat) bilan ta‘minlashni olaylik. Insonning to‘laonli yashashi, ongli mavjudot sifatida faoliyat yuritishi uchun ushbu bazaviy qadriyatlar o‘ta muhim. Xalqlar, millatlar turmush tarzini belgilab

kelgan, etnomadaniy boyliklarni o‘lmas qadriyatlarga, artefaktlarga aylantirgan ushbu bazaviy qadriyatlar, falsafa fanlari doktori, professor Iso Jabborov iborasi bilan aytganda “xo‘jalik madaniy tiplari” insonni, xalq, etnos vakili sifatida, fidoyi bo‘lishga undab keladi. Fidoyi bo‘lmasdan ushbu bazaviy qadriyatlarni asrab ham, millat, etnos vakili sifatida yashab ham bo‘lmaydi. Agar ibtidoiy davrda jamoa bo‘lib yashash shaxsdan ittifoqni, in‘oqlikni, birgalikda harakatni talab etgan bo‘lsa, keyingi ijtimoiy tarixiy bosqichlarda bu talab, turli formatsion o‘zgarishlar ta‘sirida, transformatsiyaga uchragan bo‘lsa-da, mohiyatan o‘zgarmadi. Jamoa bo‘lib yashash instinkti jamiyat, sotsium bo‘lib yashash tartibiga aylandi, ammo har ikki tartib ham insondan fidoyilikni talab etgan. Aslida jamoa, jamiyat bilan yashash har doim ma‘lum bir ma‘noda o‘z manfaatlaridan kechishni, hatto fidoyilikni taqozo qilgan. Shaxsning fidoyiligi uni jamoa a‘zoriga, yetakchisiga yoki yirik shaxsga, liderga aylantirgan [6.C.43]. Vatanparvarlikdagi fidoyilikni hayotni xavf ostiga qo‘yib biror nimani himoya qilish, jonni qurbon qilish, o‘lish tarzida talqin qilish mumkin emas. Inson hayoti oliy qadriyat. Fidoyilik uzluksiz, turli to‘siqlar va qarama-qarshiliklarga qaramay, izlanish, yaratish tarzida ham kelishi mumkin. Eskilik bilan yangilik, konservatizm bilan innovatsiya o‘rtasidagi kurash fidoyilik uchun muhim zamin. Bu kurash drammatizmga to‘la. Aynan drammatizm voqelikni noyob fenomenga aylantiradi, inson fazilatlarini va irodasini sinovdan o‘tkazadi.

Fidoyilik mohiyatan yangilikka intilish, bu boradagi to‘siqlarni bartaraf etish, ijtimoiy hayotda yangi biror narsani qaror toptirish, yaratishdir. Ammo hayotda fidoyilikning salbiy ko‘rinishi ham uchrashi mumkin. Masalan, toshqin suvda oqib ketayotgan bolachani qutqarish uchun o‘zini daryoga tashlagan kishining jasurligi, fidoyiligi faxr uyg‘otadi. Agar o‘sha kishi oqib ketayotgan mushukni qutqarish uchun o‘zini toshqin daryoga tashlasa, ziddiyatli fikr tug‘iladi. Hayvonlarni muhofaza qilish jamiyati a‘zolari bu fidoyilikni olqishlashi mumkin, ammo boshqalar, ayniqsa o‘sha kishining ota-onasi, yaqinlari bunday qilolmaydi. Ular inson hayoti oliy qadriyat ekani nuqtai nazaridan mushukni qutqarishga qaratilgan harakatni fidoyilik hisoblashmaydi, hatto uni qoralashadi. Bizning fikrimizcha, mushukning hayotini inson hayotiga tenglash mumkin emas.

Mushuk hayotini asrab qolishda fidoiyluk, hayotsevarlik elementlari bor, biroq u inson hayotini xavf xatarga qo'yishga teng emas. Shuning uchun fidoiyluk, jasurlik, altruizm hech bo'lmaganida inson hayotiga teng yoki undan yuqori narsaga (idealga, yangilikka, vatan himoyasiga, hayotni sevishtga) sarflanganidagina ijobiy fenomen bo'la oladi. Yuksak, oliyanob ideal fidoiylukni talab etadi, unga yetish tinmay mehnatni, izlanishni, hatto raqiblar qarama-qarshiligini yengishni taqozo etadi. Yangilik mohiyatan eskilikni rad etadi, bu esa eskilik bilan yangilik o'rtasida kurashni muqarrar qilib qo'yadi. Bu kurash har doim ham yangilik g'alabasi bo'lavermaydi, u kurashda ba'zan konservatizm tantana qilishi, o'z mavqeini saqlab qolishi mumkin. Vatan himoyasi esa xalq, millat, yurt, ajdodlar qoldirgan ijtimoiy makon tarzida kelgani uchun inson uni o'z hayotidan ustun qo'yadi. Fidoiyluksiz vatan himoyasi, vatanparvarlik yo'q. Hayotsevarlik insondagi eng oliyanob fazilat, betakror va faxrlansa arziydigan fidoiylukdir. Tinchlik uchun kurash, yadro qurolini ta'qiqlashga intilish, insoniyat hayotiga xavf-xatar urushlarni to'xtatish, bartaraf etish ana shunday fidoiyluk hisoblanadi.

Falsafa doktori R.R.Zamilovning yozishicha, inson xatti-harakatlarida, shu jumladan, fidoiyluk, altruizm va qahramonlikda ikki: anglanganlik va anglanmaganlik ishtirok etadi. Mazkur ilmiy metodologik ahamiyatga ega masalani aniqlashtirmay qahramonlik fenomenini to'g'ri tushunib bo'lmaydi. Chunki, bugun jamiyatimizda "bir tomondan, tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, kishilarda dunyoga, bir-birlariga, oilasi va o'ziga nisbatan mutlaq yangi, chin demokratik qadriyatlar shakllanmoqda. Ikkinchi tomondan, yevropotsentrizm va amerikanizm tarafdorlari globallashuv va modernizatsiya bayrog'i ostida kosmopolitizm g'oyasini singdirishga intilishmoqda, millatlarsiz, milliy davlatlarsiz va uyushmalarsiz bo'lgan global jamiyat barpo etishga intilmoqda [4. C.30-31]. Kosmopolitizm vatanparvarlik, millat, xalq degan voqeliklarni rad etadi, u etnomadaniy makonsiz borliqni targ'ib etadi, diqqatini "global birlik" deb atalgan millatsiz, davlatsiz, maslaksiz makonni yaratishga intiladi.

**Xulosa.** Vatanparvarlik goho tasodifiy ta'sirlar mahsuli sifatida ham kelishi mumkin. Inson xarakterida tasodiflar o'rni muhim o'rin egallaydi. Masalan, etnopsixologik kuzatishlardan ma'lumki, o'zi tug'ilib o'sgan yurtidan uzoqda ishlayotgan shaxs xalqi, millati haqida haqorotomuz fikr eshitib qolsa, kutilmaganda unda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'usi jo'sh uradi, u o'z xalqi, millati sha'nini himoya qilishga intiladi. U shu paytgacha etnoegoistik kayfiyatga berilmagan bo'lishi mumkin, ammo bir turtki bo'ldiki, u endi vatanparvarga, xalqparvarga aylandi. Ko'rinib turibdiki, vatanparvarlik tuyg'usi ko'p omilli hodisa, ular turli, goho esa ziddiyatli ta'sirlar ostida shakllanadi.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. СПб.: Питер, 2001. С.13.
2. Аристотель. Сочинения в 4 томах. Том 4. Москва: Мысль, 1984. С.379.
3. Ахмедова М. И др. Социальная философия. Ташкент: Ўқитувчи, 1997. С.102-104; Социальная философия. Учебное пособие. Москва: Алма матер, 2004. С. 48-52.
4. Замилова Р.Р. Герои и героическое: этико-философский анализ. Тошкент: NOSHIR, 2013. С.30-31.
5. Кант И. Из лекции по этике / Этическая мысль. Научно публицистическое чтение. Москва: Политиздат, 1998. С.314.
6. Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в истории. Москва: Эксмо, 2008. С.43.
7. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. Москва: Изд. Моск. 1991. С. 418.
8. Оила психологияси. Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. 23-25 б.
9. Платон. Сочинения в трех томах. Т.3. Москва: Мысль, 1976, С.237-239, 343, 359.
10. Фромм Э. Искусство быть. Новая философия. Москва: АСТ, 2014. С.192-194.